

O'ZBEK TILI QO'SHMA GAPLARI QISMLARI ORASIDAGI SEMANTIK MUNOSABATLAR

Abduraxmonov Voxidjon, kafedra mudiri,
Polvonova Maxfuza Raxmatovna,
Tabiiy yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrası assistenti
Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston, Farg'ona shahar

Annotatsiya:

Maqolada qiyoslash munosabatini bildirgan bog'langan qo'shma gaplar ushbu bo'limda zidlash munosabati orqali ifodalandi. Va zidlash munosabatini zidlov bog'lovchilar orqali ifodalanishi misollar orqali ko'rsatib o'tildi. Ayrim hollarda bog'langan qo'shma gaplarning birinchi qismi ikkinchisi bilan qay tarzda bog'lanib va zidlangan holatlarini yoritib berishga va ularni bosqichma-bosqich mazmun mohiyatini ochib berildi. Hamda ushbu jarayonni bog'langan qo'shma gaplarda zidlik mazmunini og'zaki nutq jarayonida bo'rtirib yoki kuchaytirib ko'rsatish, ma'noni zid qo'yilayotgan gap birliklariga logik urg'u berilishi yoritildi.

Kalit so'zalar: qo'shma gap, zidlik munosabatlari, ergash gapli qo'shma gap, semantik munosabat, semantik-stilistik ottenka.

KIRISH

Harakat-holat, belgi-xususiyat, voqea-hodisalarni bir-biriga zid qo'yish yo'li bilan fikr anglatish lozim bo'lganda zidlik mazmunini ifodalovchi qo'shma gap tiplaridan foylaniladi[1]. Bunday qo'shma gaplar narsa-hodisalarni belgi-xususiyati, harakati yoki holatini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish orqali ularning farqli tomonlarini ochish uchun xizmat qiladi. Zidlik mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplarning har qanday ko'rinishi antiteza usuli yordamida reallashadi, qo'shma gap qismlari o'rtasida konkret aloqa o'rnatiladi. O'zbek tilida zidlik mazmunini qo'shma gapning quyidagi tiplari orqali reallashtirish imkoniyati mavjud;

I. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar yordamida:

O'qish-jafoli, oxiri vafoli (Maqol). Rollarning katta-kichigi bo'lmaydi, artistlarning katta-kichigi bo'ladi (Shuhrat).

Yuqoridagi bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlaridan anglashilgan mazmun bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Komponentlar orasiga zidlovich bog'lovchilar qo'yilsa, ular bog'langan qo'shma gapga aylanadi. Shuning uchun ham, yuqoridagi tipdagi bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gaplarga sinonim hisoblanadi;

Dehqonning uyi kuysa – kuysin, xo'kizi yo'qolmasin. Dehqonning uyi kuysa-kuysin, lekin xo'kizi yo'qolmasin (A.Qaxxor).

II. Zidlik mazmuni bog'langan qo'shma gaplarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu holat qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi vositalar xususiyati bilan bog'liq; zidlovchi bog'lovchilar komponentlar orasidagi qarama-qarshilikni yanada kuchaytirib ko'rsatishga xizmat qiladi;

Dunyoda yaxshi kitoblar juda ko'p, lekin ularni o'qib biladigan kishilar uchungina yaxshidir (Gersen).

III. Ergash gapli qo'shma gaplar yordamida zidlik mazmunini yuzaga chiqarish mumkin. Bunday mazmunni ifodalash uchun qo'llanadigan qo'shma gaplarning ergash gapi asosan, shart yoki to'siqsiz ergash gap formasida shakllanadi, uning mazmuni bosh gap mazmuniga zid, teskari qo'yiladi;

Qaytay desa iziga – Belgi ham yo'q, iz ham yo'q. (A.Oripov)

Shunchalik o'zimizdan tinib – tinchib ketganimizga qaramaslan, men bu chaqaloq to'g'risida anchagina gap – so'z bo'lib oldim (G'.G'ulom)

Bu tipdagi ergash gapli qo'shma gaplar mazmunan zidlik munosabatini yuzaga chiqaruvchi bog'langan yoki, bog'lovchisiz qo'shma gaplarga sinonim bo'ladi;

Ergash gapli qo'shma gap;

Mezbonlar shuncha harakat qilishsa ham, sira gap qovushmadi. (O'.Usmonov)

Bu qo'shma gapning sinonimlari;

a) Bog'langan qo'shma gap

Mezbonlar shuncha harakat qilishdi, lekin sira gap qovushmadi.

b) Bog'lovchisiz qo'shma gap;

Mezbonlar shuncha harakat qilishdi - sira gap qovushmadi.

Bunday hollarda, albatta, intonatsiya rol o'ynaydi.

Zidlik mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplardan asosan, quyidagi semantik-stilistik ottenkalarni yuzaga chiqarish maqsadida foydalaniladi.

I. Zidlik – qarama – qarshilik ottenkasi:

Mashina xo'b yaxshi narsa, ammo uning ham o'ziga yarasha nag'malari bor (S.Ahmad).

II. Zidlik – to'siqsizlik ottenkasi:

Mana o'tsa hamki necha ming zamon, ko'kda oy tanhodir, ko'kda oy yolg'iz (A.Oripov).

Qo'shma gaplarda zidlik mazmunini bo'rtirib ko'rsatuvchi eng asosiy vosita, bu "ammo, lekin, biroq" zidlik bog'lovchilaridir:

Tarixda har kimning bor o'z zamoni,

Lekin tanimizda kezar – ku beshak,

Olis bobolarning ming yillik qoni (A.Oripov)

Zidlovchi bog'lovchilar ko'pincha, to'siqsizlik ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi:

I. Hali tong yorishmagan, lekin tevarak atrofda g'ovur, hayqiriq, kulgi. (A.Qaxxor).

II. Ufqdagi tog'larning usti g'ira-shira oqargan, lekin osmonda bulutlar orasida hamon milt-milt yongan yulduzlar ko'rinadi (O.Yoqubov)

III. Rais astoydil baqirdi, ammo shovqin bosilmadi. (Oybek).

Yuqoridagi sintaktik konstruksiyalar tipi jihatidan bog'langan qo'shma gaplar hisoblanib, mazmunan to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarga sinonim bo'ladi. Ularni ergash gapli qo'shma gaplarga aylantirish uchun, komponentlarni biriktiruvchi vositalarni o'zgartirish lozim bo'ladi. Ikkinchi komponent o'zgarishsiz qoladi, birinchi komponent tarkibiga ergashtiruvchi bog'lovchilar kiritiladi.

1. Hali tong yorishmagan bo'lsa ham, tevarak atrofda g'ovur, hayqiriq, kulgi.

2. Ufqdagi tog'larning usti g'ira-shira oqargan bo'lsada, osmonda, - bulutlar orasida hamon milt-milt yongan yulduzlar ko'rinadi.

3. Rais astoydil baqirishiga qaramay, shovqin bosilmadi.

Ko'rinadiki, zidlik – to'siqlik ottenkasini berishning eng qulay vositasi qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi -sa ham, -sa -da, -ga qaramay bog'lovchilari hisoblanadi. Shu bog'lovchilar yordamida tuzilgan qo'shma gaplarda zidlik mazmuni bir muncha ifodaliroq, ta'sirliroq seziladi. Nutqda ba'zan to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida zidlovchi bog'lovchilarning ham qo'llanishi bunday konstruksiyalarning sinonimik qatoriga ega bo'lishi hamda, bog'lovchilarning ma'no jihatidan bir-biriga yaqinligi bilan bog'liqdir:

Mirzakarimboyning bunday muomalasi Yo'lichiga tahqirli bo'lsa ham, ammo kutilmagan bir hodisa emas edi[2] (Oybek).

Ma'nosi bir-biriga yaqin ikki bog'lovchining bir qo'shma gapda qo'lanishi komponentlar orasida mazmuniy munosabatni yanada bo'rtiradi.

Zidlik – to'siqsizlik ottenkasi faqat bog'lovchilar yordamida yuzaga chiqmay, balki ayrim yuklamalar orqali ifodalanishi ham mumkin:

Dildorning gavdasi o'girildi-yu, yuzi, ko'zlari hamon A'zamjon ketgan tomonda edi. (S.Ahmad)

Bu qo'shma gap komponentlari o'rtasida zidlovchi bog'lovchilar ham qo'lanishi mumkin:

Dildorning gavdasi o'girildi, lekin yuzi, ko'zlari hamon A'zamjon ketgan tomonda edi. (S.Ahmad)

Yuqoridagi qo'shma gaplar anglatgan mazmun ottenkalari jihatidan juda yaqin bo'lsa, - da ma'lum bir nutq stiliga xosligi bilan o'zaro farqlanadi: komponentlari yuklama yordamida birikkan qo'shma gap ko'rinishi asosan, so'zlashuv nutqi stilida, zidlovchi bog'lovchi ishtirok etgan qo'shma gap turi esa, asosan, kitobiy nutq uslubida qo'laniladi.

Demak, o'zbek tilida zidlik mazmunini ifoda etuvchi qo'shma gaplarning uchchala tipi o'zaro sinonimik qator hosil qiladi:

Bog'lovchisiz qo'shma gap va uning sinonimlari:

Do'st bo'lish oson, uni saqlash qiyin (P. Mo'min)

Bu qo'shma gapning komponent orasida zidlovchi bog'lovchilar qo'llansa, ular bog'langan qo'shma gapga aylanadi:

Do'st bo'lish oson, lekin uni saqlash kiyin

Bu tipdagi qo'shma gaplar to'siqsiz ergash gapni qo'shma gaplarga ham sinonim bo'ladi:

Do'st bo'lish oson bo'lsa-da uni saqlash qiyin.

Bog'langan qo'shma gap va uning sinonimlari:

Ot minish ayol kishining xunari emas, lekin siz otga ancha yarashtingiz![3] (A. Qaxxor)

Yuqoridagi bog'langan qo'shma gap mazmunan to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga sinonim hisoblanadi:

Ot minish ayol kishining xunari bo'lmasa ham, lekin siz otga ancha yarashtingiz!

Zidlik mazmunini ifodalovchi bog'langan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplarga sinonim ravishda qo'llanishi mumkin:

Bu binoning harorati bor-u, halovati yo'q. (Oybek)

Bu binoning harorati bor - halovati yo'q.

Ergash gapli qo'shma gap va uning sinonimlari:

Karvonboshi Yodgorbek hisoblansa xam, yukning og'iri senlarga tushadi. (O.Yoqubov).

Yuqoridagi to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar mazmunan zidlik munosabatini yuza chiqaruvchi bog'langan qo'shma gaplarga teng keladi:

Karvonboshi Yodgorbek hisoblanadi, biroq yukning og'iri senlarga tushadi.

Zidlik mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar qo'llanishi jihatidan ma'lum bir nutq uslubi bilan chegaralanmaydi. Bunday qo'shma gaplardan mavjud nutq stillarida juda unumli foydalaniladi, chunki ularda zidlik mazmunini ifodalashning qulay va ta'sirli imkoniyatlari bor.

Qiyoslash mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar sinonimiyasi. Qiyoslash mazmunini ifodalash uchun xizmat qilgan qo'shma gaplar ikki qismga ajralib, ulardan anglashilgan xarakat-xolat yoki belgi-xususiyat bir-biriga qiyos etiladi, solishtiriladi. Shu yo'l bilan ularning farqi ko'rsatiladi. Xar ikki qiyos etilayotgan komponentlar orasida sezilarli pauza beriladi, bundan fikrning yana davomi borligi anglashilib turadi. Bunday konstruksiyalar zidlik mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar singari antiteza usuli yordanida hosil qilinadi. Qiyoslash mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplarda komponentlar tarkibida qiyos etilayotgan bo'laklar logik urg'u oladi. Xozirgi zamon o'zbek tilida qiyoslash mazmuni qo'shma gapning har uchala tipi yordamida ifodalanishi mumkin:

I. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar qiyoslash mazmunini ifodalovchi vosita :

Ovchining zo'ri sher otar,

Yigitning zo'ri yer ochar. (Maqol)

Bog'lovchisiz q'yshma gaplarda ekspressivlikni ta'min etuvchi asosiy vosita intonatsiya hisoblanadi, shuning uchun ham qiyoslash mazmunini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari alohida ritmik-melodik xususiyatga ega bo'ladi.

2. Bog'langan qo'shma gaplar qiyoslash munosabatini yuzaga chiqarish vositasi sifatida:

Odamlar farzandining diplomiga to'y qilyapti-yu, men nega qarab o'tirar ekanman. (O.Yoqubov)

3. Qo'shma gaplar orqali qiyoslash munosabatining yuzaga chiqishi:

Odamlar qasd qilib, qo'l ko'tarsa, past bo'lib, qo'l qovushtirdik (A.Qaxxor).

ASOSIY QISM

Mavzuning mazmun mohiyatidan kelib chiqib, shuni aytishim muhimki, bog'langan qo'shma gaplarda zidlik munosabatini ifodalashda gap mazmunini bir-biriga qiyoslash yotadi, ya'ni, bu orqali ma'lum voqea hodisani belgi xususiyatlari bir-biriga qiyoslashdan maqsad, ular orasidagi farqini aniqlash, yoki ularni zid qo'yish, bir-biriga nomuvofiq ekanini ko'rsatishdan iborat.

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo'shma gap ikki markazga, ikki qismga bo'linadi. Har ikki qism bir-biriga qiyoslanadi. Qiyoslashning asosida esa ana shu ikki markazni bir-biriga zid qo'yish, ularning bir-biriga nomuvofiq ekanini ko'rsatish yotadi. Shunga ko'ra, qo'shma gapni qancha gaplar tashkil etsa, ular o'zaro bog'lanib, birikib, aniq ikki markazga guruhlanadi[4]: *Otam "Mirzo" va "G'ulom" taxalluslari bilan talay she'rlar yozgan. Lekin bular bir yerga to'planib chiqqan emas* (G'.G'ulom). *Yana o'ylashib ko'ramiz, xar holda so'zingni yerda qoldirmasman, lekin unday nojo'ya so'zdan qayt* (Oybek). *Qorinlar to'ldi, tovoqlar bo'shadi, lekin so'fi "Savob" bo'ladi deb hali ham dasturxonga to'kilgan gurunchlarni terib, og'ziga solmoqda edi* (S.Ayniy). *Fathulloboy hovlisiga yetdi, hovli darvozasi ochiq, ammo u darvoza oldida bir qizil askar soqchilik qilib turar edi* (S.Ayniy).

Bog'langan qo'shma gaplarda xar ikki qismning yoki bu qismlarning birining mazmuni qiyoslanadi. Qiyoslashning asosida, izohlanadi, yoki bu qismlarning tarkibidagi ayrim gap bo'laklarning ma'nosi qiyoslanadi, izohlanadi. Ayrim gap bo'laklarining ma'nosi

qiyoslanganda, shunday gap bo'lagi bog'langan qo'shma gapning ikkinchi qismida ham takrorlanadi.

Qiyoslash munosabatini ifodalagan ayrim gramatik vositalar inkor bog'lovchilari, *esa, bo'lsa, yo'qsa* elementlari, yuklamalar va inkor kategoriyasidir. Qiyoslash mazmun munosabatining turli ottenkalarini ifodalashda leksik vositalar qo'llanadi.

Qiyoslash munosabatini ifodalagan qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning intonatsiyasi bir xil bo'lmaydi, odatda qo'shma gapning birinchi qismi ko'tarilgan intonatsiya bilan, qo'shma gapning ikkinchi qismi esa pasaygan intonatsiya bilan talaffuz etiladi; har ikki qism orasida ancha sezilarli pauza beriladi. Qo'shma gap tarkibidagi qiyoslanayotgan bo'laklarga kuchli logik urg'u tushadi. Bu urg'u *bo'lsa, esa* fe'llari yordami bilan tuzilgan qo'shma gaplarda ayniqsa kuchli bo'ladi.

Yuklama yordami bilan tuzilgan qo'shma gapning birinchi qismining intonatsiyasi boshqa holatlarga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo'shma gap qismlari orasida pauza ancha cho'ziq bo'lishi ham mumkin. Bu holat yozuvda nuqta yoki nuqtali vergul bilan ko'rsatiladi. Bunda qo'shma gapni tashkil etgan qismlarning mazmuni ancha o'ziga mustaqil yoki tarkibi murakkab qismlardan iborat bo'ladi. *Oyqiz turgan yerdan sal narida ikki yosh bola katta toshni mashina kuzoviga tashlash uchun urinmoqda edi. Ammo katta tosh bolalarni pisand qilmagandek, o'rnidan jilmaydi* (Sh.Rashidov). *Qo'lini tig'iga uzatdi. Lekin chol bu qimmatli buyumni qo'ldan chiqarishni istamadi* (Oybek). *Yoshim o'n oltiga rosa to'lgani yo'q ediki, bir paxtachi boydan xotin ustiga sovchi chiqdi, yoshi ellikdan oshgan ekan, o'g'il qizlari ko'p; lekin pul quturtirib yosh qizga uylanishni orzu qilgan*[5] (Oybek).

Nuqtali vergul bilan ajratilgan qo'shma gap qismlarining o'zaro mazmuniy aloqasi, nuqta qo'yilgan holatga nisbatan yaqinroq va har ikki gap orasidagi pauza qisqaroq bo'ladi.

Bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid qo'yilishi, qiyoslanish va bu orqali har ikki gapdan anglashilgan mazmun bir-biridan farqlanishi mumkun. Shunga ko'ra, qiyoslash munosabatini ifodalagan bog'langan qo'shma gaplar uch gruppaga bo'linadi:

1. Zidlash orqali zidlash.
2. Qiyoslash orqali zidlash.
3. Izohlash orqali zidlash.

Qo'shma gapni tashkil etgan qisimlarning umumiy mazmuni yoki gaplar tarkibidagi ayrim bo'laklarining ma'nosi mazmun bir-biriga zid qo'yiladi. Ma'lum voqea, xodisalarni, mazmun bir-biriga zid qo'yish asosan, ammo, biroq, bog'lovchilari orqali ifodalanadi[6].

Bunda quyidagi mazmun ottenkalari ifodalanadi:

a) shaxs yoki predmetning xohishiga zid voqea, xodisaning o'y berishi:

To'nini yechib, bir nafas istirohat qilmoqchi bo'ldi, lekin u butun borligi bilan hozir Xirotda edi. (O.) Fridun... qizning bu qarashlaridan o'zini olib qochishga urinar edi, lekin harsafar uning ko'zlariqizning ko'zari bilan uchrashar edi. (M. I b r.) Ochning tushiga osh kiradi degandek, kapitalislar ham tushlarida sotsialistik tuzumning halok bolishini, kommunizmning halok bolishini qo'radilar. Lekin ularning o'zlari ham, muyassar bo'lolmaydilar. (Xrushchev N. S.) Biz ularning kemasiga bormoqchi edik, lekin to'lqinga qarshi yurib bo'lmadi, toshqin bizni qirg'oqqa qarab olib ketdi. (Defo, "R. Kruzo"). Ba'zan Mamarasul akasining ov miltig'ini olib

ovga chiqar, daryo bo'ylaridagi chakalakzorlarni aylanib, lekin otgan o'qi sira nishonga tegmas edi. (S. Nazar.) Qayoqqa qaramasin, u ovqatni ko'rar, hidi dimog'iga urar, lekin ulardan o'ziga qachon biron luqma tegishini bilmasdi. (P. T.)

b) shaxslarning harakat, holati bir-biriga zid qo'yiladi:

To'g'ri, dugonalari bir necha marta, Krasnov seni yaxshi ko'rib qolibdi, deyishgan ham, lekin u bu gaplarga hazil deb qarab, e'tibor bermagan. (K. Fayzullin) Sen bergan o'lkani sotay dedilar, Bizni zindonlarga otay dedilar. Lekin bu axlatni supurdik, otdik. ("Xat")

Shura yo'lida nimanidir ag'darib yuborganicha menga tomon tashlandi, ammo men xuddi mixlab qo'ygandek o'rnimdan qo'zg'ololmadim. (Ks.) Buvinisa ko'zaridan duv-duv yosh oqizib yig'lar, lekin uning yig'isini xech kim sezmasdi. (P. T.)

v) ma'lum maqsadda qilingan harakat, holatga zid voqea, hodisaning ro'y berishi:

Sidiqjon qaynonasining gapiga zaharxanda qilib javob berdi, ammo kampir quloq solmay, ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib, vaysaganicha uyga kirib ketdi. (A.K.) Shoir aqlli kengash bilan uni tog'ri yo'lga solib yuborish mumkunligini ishonarli ham. Lekin arzimagan oir bahona goho uning g'azabiga olovni birdan gurullatgan shamolday ta'sir qilar edi. (O.) Gulsumbibi qizini quchoqlab qichqirdi, lekin Gulnorning yarim ochiq ko'zlarida hayot so'ngan edi. (O.)

g) bog'langan qo'shma gapning birinchi qismidan anglashilgan harakat, belgi-xususiyatini zid bolishiga qaramay, ikkinchi qismdan anglashilgan mazmunning yuzaga chiqishi:

Tantiyuovvachchaning nafasi ichiga tushib ketdi, biroq u uyalgan kabi o'zini bilmaslikka soldi. (O.) Bu yil bog'imizda hosil uch hissa ortiq. Lekin hammadan burun paxtaga zo'r beraylik. (O.) Gulnorning ko'zlari allaqanday xasta yorokinlik bilan ochilib ketdi, biroq u uyalgan kabi, ko'rpanitortib, ko'ragini yopdi va Yo'lgacha tikildi. (O.) Xalq qurolsiz edi, lekin ko'zlarida yongan g'azab, yuzlaridagi jiddiy qahirli ifoda uni portlashga tayyor dahshatli bir kuchga aylantirgan edi. (O.) Havodagi shovqindan gapiruvchining tovushi eshitilmas edi, ammo shk tovush aytgan odamning ismi aniq eshitildi. (Fad.) Yomg'ir ttindi, ammo jo'yaklarda suv hali ham shildiramoqda edi. (S. Nazar) Tiniq osmonda yulduzlar charaqlar, ammo oy ko'rinmasdi. (S. Nazar)

d) ma'lum maqsadning yuzaga chiqishi uchune zid bo'lgan ob'ektiv to'siq:

Voropaev turmoqchi bo'ldi, lekin madori qolmadi. (Pavlenko) Xolmurod bilan qo'p gaplashgusi kellar, lekin iloji bo'lmas edi. (P. T.)

e) qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplardan anglashilgan mazmunlarning bir-biriga nomuvofiq ekanliga:

Oltinsoyliklarning yerlari ko'p, lekin bu yerlarning xammasi yoz oylari, quyosh tig'ida qovjirab qolardi. (Sh. R.)

Zidlov munosabati bog'langan qoshma gap komponentlarini o'zaro bog'lashda ammo, lekin, biroq kabi bog'lovchilar va shu bog'lovchilar vazifadagi –u(-yu), -da yuklamalari ishlatiladi.

Zidlov bog'lovchil bog'langan qoshma gaplardagi mazmun to'siqsizergash gapli qo'shma gapdagi mazmunga yaqin bo'ladi.

Ammo bog'lovchisi bilan birikkan qo'shma gaplarda komponentlardagi mazmun bir-biriga qarama-qarshi qoyiladi: *Tiniq osmonda yulduzlar charaqlagan, ammo oy ko'rinmasdi. (O. Yoqubov).*

Lekin bog‘lovchisi xam mazmunan bir-biriga zid ikki sodda gapni bog‘laydi.

Biroq bog‘lovchisi ammo, lekin bog‘lovchilari kabi birdan ortiq voqea-xodisa yoki xarakatning bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilganini va, shunga qaramay , ulardan birining yuzaga kelishini ko‘rsatish uchun qollanadi

Xulosa

Qiyoslash munosabatini bildirgan bog‘langan qo‘shma gaplar ushbu bo‘limda zidlash munosabati orqali ifodalanadi. Va zidlash munosabatini zidlov bog‘lovchilar orqali ifodalanishi misollar va snoskalarda ko‘rsatib o‘tildi. Ayrim hollarda bog‘langan qo‘shma gaplarning birinchi qismi ikkinchisi bilan qay tarzda bog‘lanib va zidlangan holatlarini yoritib berishga va ularni bosqichma-bosqich mazmun mohiyatini ochib berishga harakat qildim. Hamda ushbu jarayonni bog‘langan qo‘shma gaplarda zidlik mazmunini og‘zaki nutq jarayonida bo‘rtirib yoki kuchaytirib ko‘rsatish, ma‘noni zid qo‘yilayotgan gap birliklariga logik urg‘u berilishi yoritildi. Ayrim holatlarda gaplarning ikkinchi qismi maqol bilan kelish holatlarini ham misol qilib o‘tdim. Va bu jarayondan unumli foydalangan adiblar qatoriga Oybek va Sh.Rashidovlarni asarlaridan misollar keltirdim.

Ergash gapli qo‘shma gaplar orqali zidlikni ifodalashda shart ergash gaplar, to‘siqsiz ergash gaplar orqali gaplarni qay holatda bir-biriga zid qo‘yilishini, gaplar tarkibida gap bo‘laklari tarkibini joylashishi ko‘rsatildi va yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajonov A. Zamonaviy o'zbek adabiy tilining murakkab jumllarining stilistik xususiyatlari. Dissertatsiya. Toshkent – 1991.
2. Oybek. QUTLUG‘ QON. Roman // Asarlar O‘n Tomlik Uchinchi Tom // G‘ofur G‘ulom nomidagi Badiiy Adabiyot nashriyoti, TOSHKENT – 1969.
3. Abdulla Qahhor. Sinchalak. Qissa. Ikkinchi nashri. Toshkent.
4. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. T., «Fan», 1976, 334 bet
5. Oybek. Qutlug‘ qon. Roman. G‘.G‘ulom nashriyoti. Toshkent, 2019 y, 484 b.
6. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. T., «Fan», 1976, 335 bet
7. Jumaniyazova, N. A. (2021). Kitob Tarixi. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(9), 942-944.
8. Nargiza abduq‘ofurovna, J. (2023). PSIXOLOGIYADA INSONLARNI BOSHQARISH USULLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(2), 19-23.
9. Nargiza abduq‘ofurovna, J. (2023). О ‘. HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” VA U. FOLKNERNING “SHOVQIN VA G ‘AZAB” ASARLARINING JANRI VA O ‘ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(2), 14-18.
10. Жуманиязова, Н. А. (2022). Тилга Ёътибор–Элга Ёътибор. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(2), 130-133.
11. Абдупаттоев, М. (2022). ЛИНГВОПОЭТИКА: ПОЭТИК НУТҚДА ЭКСПРЕССИВ ВА ЭКСТРАЛИНГВИСТИК ВОСИТАЛАР. *Research Focus*, 1(1), 249-254.

12. Umirziyev, U., & Abdurakhmonov, V. (2022). FLOW THEORY. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 261-264.
13. Abdurakhmonov, V. (2022). Functional Specificity Of Alternative Interrogative Sentences. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 82-87.
14. Abdusattorovich, A. V. (2022). Methodological and semantic classification of alternative interrogative pronouns. *Fsu. Scientific News-Научный Вестник. Фергу*, 1.
15. Abdurahmanov, V. A. (2022). M Bisubstantivation in alternative interrogative sentences. *Issues of linguistic theory and practice*.
16. Abdupattoev, M., & Abdurahmonov, V. (2021). Microtext composition. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 466-473.
17. Abdusattorovich, A. V. (2022). EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FAMILY IN PROVERBS AND SAYINGS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(24), 286-289.
18. Polvonova Mahfuza Rakhmatovna, A.Sh.Bazarbayeva. CONTRADICTION RELATIONSHIP IN COMPOUND SENTENCES / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences / VOLUME 2 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 766 w October 2022 www.oriens.uz
19. Polvonova Makfuza Raxmatovna. REPRESENTATION OF THE CONTRADICTION RELATION IN ENGLISH CONNECTED ADJUNCTS International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education /LONDON CONFERENCE, <https://conferencea.org> May 10th 2023, 34.